



KORXONALAR FAOLIYATINI BAHOLASHDA ESG KO'RSATKICHLARI TIZIMINI QO'LLASH

Turg'unov Jasurbek Alimardon o'g'li

Qo'qon universiteti, i.f.f.d, dotsent v.b

ORCID: 0000-0002-1161-8960

turgunov.jasurbek1123@gmail.com

***Annotatsiya:** Mazkur tezisda korxonalar faoliyatini baholashda ESG (Environmental, Social, Governance) ko'rsatkichlari tizimining ahamiyati va qo'llanilish mexanizmlari yoritilgan. ESG ko'rsatkichlarining mazmuni, ularning xalqaro standartlar, konseptual asoslar hamda normativ-huquqiy hujjatlar bilan bog'liqligi tahlil qilingan. Shuningdek, ekologik, ijtimoiy va boshqaruv komponentlari bo'yicha asosiy ko'rsatkichlar tizimi keltirilib, ularning korxonalar barqaror rivojlanishini baholashdagi o'rni asoslab berilgan. Tadqiqot natijasida ESG ko'rsatkichlarini to'g'ri tanlash va ularni kompleks qo'llash korxonalarining uzoq muddatli barqarorligi hamda risklarga chidamliligini ta'minlashda muhim omil ekanligi aniqlangan.*

***Kalit so'zlar:** ESG ko'rsatkichlari, inson resurslari, mehnat xavfsizligi, boshqaruv samaradorligi, risklarni baholash, ESG standartlari, sanoat korxonalarini.*

Kirish. Ko'rsatkichlar - bu ma'lum jarayon yoki soha faoliyati samaradorligini baholash va uning rivojlanish tendensiyalarini kuzatish uchun qo'llaniladigan miqdoriy yoki sifat belgisidir. Korporativ boshqaruv va sanoat amaliyotida ko'rsatkichlar korxonaning asosiy faoliyat yo'nalishlari, jumladan daromad, rentabellik, mijozlar bazasi va inson resurslari samaradorligini tahlil qilishda muhim ahamiyat kasb etadi. ESG (Environmental, Social, Governance) ko'rsatkichlari esa korxonaning ekologik, ijtimoiy va boshqaruvga oid faoliyati samaradorligini baholovchi indikatorlar tizimini belgilaydi. Ushbu indikatorlar an'anaviy moliyaviy ko'rsatkichlarga o'xshash tarzda kompaniyaning operatsion natijalari va risk profilini aniqlashda qo'llaniladi, biroq ular moliyaviy bo'lmagan



omillarni ham qamrab oladi. ESG ko'rsatkichlari turli standartlar, metodologik asoslar yoki normativ-huquqiy talablar asosida shakllantirilishi mumkin, shuningdek, korxonaning ichki asosiy ijro ko'rsatkichlari tizimi doirasida ham ishlab chiqilishi mumkin.

So'nggi yillarda investitsiya nuqtai nazaridan investorlar asosan ESG ko'rsatkichlariga tobora ko'proq e'tibor qaratmoqda. Bu esa korxonaning uzoq muddatli barqarorligi va moliyaviy bo'lmagan risklar (masalan, ekologik xavflar yoki ijtimoiy mas'uliyat bilan bog'liq omillar)ni chuqurroq baholash imkoniyatini beradi.

Asosiy qism. ESG ko'rsatkichlari turli xalqaro standartlar, metodologik yondashuvlar hamda normativ-huquqiy talablar asosida shakllantiriladi. ESG ko'rsatkichlarini shakllantirishda xalqaro tashkilotlar tomonidan ishlab chiqilgan standartlar, milliy qonunchilik talablari hamda sanoat xususiyatlaridan kelib chiqadigan mezonlar inobatga olinadi. Bu esa ESG baholash tizimining kompleksligi va moslashuvchanligini ta'minlab, sanoat korxonalarining barqaror rivojlanish darajasini aniq va tizimli baholash imkonini beradi va ular quyidagicha tasniflanadi:

Standartlar - aniq va batafsil ochiqlash talablarini belgilovchi tizim bo'lib, ular korxonadan ma'lum bir ko'rsatkichlarni taqdim etishni talab qiladi. Ushbu standartlar odatda yuqori darajadagi shaffoflik va hisobdorlikni ta'minlashga qaratilgan.

Konseptual asoslar - umumiy metodologik yo'nalish va mazmuni taqdim etadi, biroq ular aniq ko'rsatkichlarni majburiy tarzda belgilamaydi. Ular ko'pincha standartlar bilan birgalikda qo'llaniladi.

Tartibga soluvchi hujjatlar - davlat yoki xalqaro tashkilotlar tomonidan majburiy tarzda joriy etiladigan qoidalar majmuasi bo'lib, ESG amaliyotiga bevosita ta'sir ko'rsatadi.

So'rovnomalar va reyting tizimlari - manfaatdor tashkilotlari tomonidan ishlab chiqilib, korxonalarining ESG faoliyatini baholash uchun qo'llaniladi. Ular ixtiyoriy xarakterga ega bo'ladi.



Hozirgi vaqtda ESG me'zonlari ma'lum darajada turli standart va konseptual asoslarga ega. Umumiy tendensiya esa ESG ko'rsatkichlarini umumiyashtirish hamda xalqaro darajada uyg'unlashtirishdan iborat. Zamonaviy ESG rivojlanish tendensiyalari quyidagi asosiy yo'nalishlarda namoyon bo'lmoqda:

Talablarning kompaniyalar va moliyaviy tashkilotlar uchun iqlim bilan bog'liq moliyaviy risk va imkoniyatlarni oshkor qilish bo'yicha xalqaro tavsiyalar tizimi bilan uyg'unlashuvi;

iqlim o'zgarishi va xilma-xillik kabi universal ahamiyatga ega mavzularga e'tiborning ortishi;

sanoatga xos muhim mavzular va ko'rsatkichlarni aniqlanishi hamda korxonalarda ularning muhimligini asoslab berish talabining shakllanishi.

ESG ko'rsatkichlarining eng muhim xususiyatlaridan biri ularning ham miqdoriy, ham sifat ko'rsatkichlardan tashkil topgan.

Miqdoriy ko'rsatkichlar - aniq sonli ifodaga ega bo'lib, ular vaqt bo'yicha yoki kompaniyalararo taqqoslash imkonini beradi. Masalan, karbon emissiyasi darajasi yoki energiya iste'moli ko'rsatkichlari.

Sifat ko'rsatkichlar - strategiyalar, boshqaruv tizimlari, qarorlar va jarayonlarni tavsiflovchi ko'rsatkichlar bo'lib, ularni o'lchash nisbatan murakkab hisoblanadi. Masalan, mehnat xavfsizligi tizimi yoki ijtimoiy tashabbuslar samaradorligi.

ESGning ijtimoiy komponenti ko'pincha sifat ko'rsatkichlari bilan ifodalanadi, jumladan inklyuziya yoki korxonaning jamiyatga ta'sir masalalari shular jumlasidandir. Amaliyotda korxonalar ESG hisobotlarida miqdoriy va sifat ko'rsatkichlarini birgalikda qo'llaydi. Bu esa manfaatdor tomonlarga korxonaning barqaror rivojlanish darajasini yanada kompleks va chuqur baholash imkonini beradi.

(1-jadval)

1-jadval

Korxonalarida ESG omillarini baholash ko'rsatkichlari tarkibi¹

¹ Muallifning ishlanmasi



Ekologik	Ijtimoiy	Boshqaruv
<p>Zaharli is gazlari emissiyasi / Scope 1, Scope 2 va Scope 3 toifalari bo'yicha chiqarilgan issiqxona gazlari (GHG) emissiyalari miqdori</p>	<p>Xodimlar diversifikatsiyasi / Xodimlar tarkibida gender, jins yoki etnik guruhlar bo'yicha ulushlar (foizda)</p>	<p>Kiberxavfsizlik / Ma'lumotlar buzilishi holatlari soni; shaxsga dori ma'lumotlariga kiberxavflar, kiberhujumdan zarar ko'rgan foydalanuvchilar soni</p>
<p>Energiya samaradorligi / Korxonaning umumiy energiya iste'moli hajmi, shundan elektr tarmog'idan olinadigan energiya ulushi hamda qayta tiklanuvchi manbalardan foydalanilgan elektr energiyasi ulushi foizlarda ifodalanadi</p>	<p>Mehnat samaradorligi / Faol ishchi kuchining jamoaviy muzokaralardagi ishtiroki (foizda)</p>	<p>Biznes etikasi / "Transparency International" indeksida eng past 20 ta o'rinni egallagan mamlakatlardagi sof daromad hajmi</p>
<p>Chiqindilarni boshqarish samaradorligi / Utilizatsiyadan keyin qayta yo'naltirilgan chiqindilarning umumiy og'irligi</p>	<p>Xodimlarning sog'lig'i va mehnat xavfsizligi / Umumiy qayd etiladigan baxtsiz hodisalar darajasi</p>	<p>Biznes modelning barqarorligi / Qayta ishlangan va chiqindidan energiya olish uchun qayta ishlangan materiallar hajmi</p>
<p>Suv resurslarini boshqarish</p>	<p>Xodimlarning sog'lig'i va mehnat xavfsizligi /</p>	<p>Biznes modelning barqarorligi / Bosh</p>



<p>samaradorligi / Suv tanqisligi kuzatiladigan barcha hududlardan umumiy suv iste'moli</p>	<p>Boshlang'ich darajadagi ish haqi standartlarining gender bo'yicha minimal ish haqiga nisbati</p>	<p>ijrochi direktorning yillik umumiy kompensatsiyasining barcha xodimlar o'rtacha ish haqiga nisbati</p>
--	---	---

Avvalo, korxonaning operatsion va moliyaviy samaradorligiga sezilarli ta'sir ko'rsatuvchi, shuningdek atrof-muhitni muhofaza qilish va jamiyat farovonligini ta'minlash nuqtayi nazaridan muhim hisoblangan material ESG omillarini aniqlash zarur. Keyingi bosqichda, korxonada faoliyat yuritayotgan hududlarda amal qiluvchi ESGga oid normativ-huquqiy talablar doirasiga kirish-kirmasligi tahlil qilinishi lozim. Aaniqlangan ustuvor yo'nalishlar bo'yicha aniq ko'rsatkichlar va me'zonlar taqdim etuvchi asosiy standartlar hamda metodologik yondashuvlardan foydalanish tavsiya etiladi. Xususan, amaldagi **tartibga soluvchi hujjatlar** tomonidan belgilangan ko'rsatkichlar asosiy yo'riqnoma sifatida xizmat qilishi mumkin.

Xulosa. ESG ko'rsatkichlari zamonaviy korporativ boshqaruv tizimining ajralmas tarkibiy qismiga aylanib bormoqda va ular kompaniyalarning nafaqat moliyaviy, balki ekologik va ijtimoiy samaradorligini ham kompleks baholash imkonini beradi. ESG ko'rsatkichlari korxonaning uzoq muddatli barqarorligi, risklarga chidamliligi hamda manfaatdor tomonlar oldidagi mas'uliyat darajasini aniqlashda muhim vosita sifatida namoyon bo'ladi. Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, ESG ko'rsatkichlarini tizimli ravishda aniqlash va ulardan samarali foydalanish, avvalo, material ESG omillarini to'g'ri belgilash, tegishli standart va frameworklarga tayangan holda mos metrikalarni tanlash hamda amaldagi reglament talablariga muvofiqlikni ta'minlashni talab etadi. Shu bilan birga, miqdoriy va sifat ko'rsatkichlarining uyg'unlashuvi kompaniyaning barqaror rivojlanish ko'rsatkichlarini yanada to'liq va ishonchli aks ettirishga xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Alda M (2019) Corporate sustainability and institutional shareholders: the pressure of social responsible pension funds on environmental firm practices. *Bus Strateg Environ* 28(6):1060–1071. <https://doi.org/10.1002/bse.2301>



2. Bassen A and Kovács AM (2008) Environmental, Social and Governance Key Performance Indicators from a Capital Market Perspective. Zeitschrift Für Wirtschafts- Und Unternehmensethik, 9(2). <http://ssrn.com/abstract=1307091>
3. Crace L, Gehman J (2023) What really explains ESG Performance? disentangling the asymmetrical drivers of the triple bottom line. Organ Environ 36(1):150–178. <https://doi.org/10.1177/10860266221079408>
4. Turg'unov J.A. Sanoat korxonalarini rivojlanishining atrof-muhitga ta'sirini baholashda ESG tamoyillarini qo'llash imkoniyatlari va istiqbollari // "Yashil iqtisodiyot va taraqqiyot" ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, ilmiy, ommabop jurnali. 3-son, 671-676-betlar. Toshkent. (2024)
5. Turg'unov J.A. O'zbekistonda sanoat korxonalarining barqaror rivojlanishining ekologik jihatlari // GlobalBiz Summit: Business and Economic strategies for the future. (2025), 68-71 pages
6. OECD. Corporate Governance Principles, 2015.
7. Task Force on Climate-related Financial Disclosures (TCFD). Recommendations Report, 2017.